

---

## HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI” TADBIRI TUMANDAGI CHYeK MAHALLASI HUDUDIDA ISTIQOMAT QILUVCHI YOSHLAR ISHTIROKIDA O’TKAZILDI.

Bugun Toshloq tumani hokimi, 1-sektor rahbari A.Djurabayev aholi murojaatlarini o’rganish maqsadida Chek MFYdagi yoshlar bilan uchrashdi. Yoshlar o’zlarining bank kreditlari, bandlik, subsidiya asosida tikuv mashinalari olish, tadbirkorlikni boshlash uchun yer ajratish kabi murojaatlari, takliflar hamda muammolari bilan hokimga to’g’ridan-to’g’ri murojaat qildilar.

Qo’yilgan masalalarning aksariyati joyida hal etildi. Muddat talab etiluvchi murojaatlarni o’rganib, hal etish yuzasidan tuman hokimi soha mutasaddilariga tegishli topshiriq va ko’rsatmalar berdi. “Yoshlar daftari” ro’yxatida turuvchi F.Ishmurodovning murojaati o’z vaqtida xal etildi. Unga subsidiya asosida inkubator uskunasi yetkazib berildi. Shuningdek, M.Botirovaga ham o’z murojaatiga ko’ra, elektr pechi berildi.

2022-07-13 15:57:17